

Ilmiy-o'quv markazi" ga tashrif

2021-yil 19-aprel kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining "Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik" va "Suv tejamkor sug'orish texnologiyalari" yo'nalishi birinchi bosqich magistrleri institutimizning Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanida joylashgan "Ilmiy-o'quv markazi" ga tashrif buyurishdilar. "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasida professor S. X. Isaev rahbarligida magistr'larga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi va Evropa Ittifoqining «O'zbekistonning qishloq hududlarida suv resurslarini barqaror boshqarish» dasturi doirasida amalga oshirilayotgan «Texnik salohiyatni mustahkamlash» loyihasi doirasida qurilgan "Suv tejoychi texnologiyalar (tomchilatib, yomg'irlatib, tuproq ostidan va lizimetrik)" tajriba o'tkazish bo'yicha o'quv ilmiy markazi sharoiti bilan tanishtirildi.



TIQXMMning Ilmiy o'quv markazi bilan tanishish jarayoni

Lizimetr uchastkasini ko'rinishi

Yomg'irlatib sug'orish texnologiyasi bilan tanishdi.

Yomg'irlatib sug'orish shlanglarini ulanish jarayonini ko'zdan kechirildi.

Lizimetrda sizot suvlar sathini o'lchash jarayoni bilan tanishdi.

"Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasida professori S.X.Isaev axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati